

ULUG'BEK ISHANOVNING IJODIY FOLIYATI

Madrimova To'xtajon

*O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali "umumiylashtirish va
social-gumanitar fanlar" kafedrasi "Musiqa shunoslik"*

mutaxassisligi 2- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Kamalova Gulmaryam Maksedullaevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ishanovlar oilasining O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tasviri san'ati tarixidagi o'rni va ulug'bek Ishanovning san'at sohasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Muallifning san'atga bo'lgan sadoqati, pedagogik faoliyati va yosh avlodni tarbiyalashdagi metodlari o'rganiladi. Maqola orqali oilaning san'atga bo'lgan mehr-muhabbati va milliy madaniyatga hurmatini ifodalovchi ijodiy faoliyatlarini yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ishanovlar oilasi, tasviri san'at, pedagogika, san'at tarixi, yoshlarni tarbiyalash, milliy madaniyat.

аннотация: В данной статье рассматривается роль семьи Ишановых в истории изобразительного искусства Узбекистана и Каракалпакстана, а также творческая деятельность Улугбека Ишанова. Анализируются его преданность искусству, педагогическая деятельность и методы воспитания молодого поколения. Статья освещает творческую деятельность семьи, отражающую любовь к искусству и уважение к национальной культуре.

Ключевые слова: Семья Ишановых, изобразительное искусство, педагогика, история искусства, воспитание молодежи, национальная культура.

annotation: This article examines the role of the Ishanov family in the history of visual arts in Uzbekistan and Karakalpakstan, highlighting the artistic activities of Ulugbek Ishanov. It analyzes his dedication to art, pedagogical endeavors, and methods of nurturing the younger generation. The piece sheds light on the family's artistic journey, reflecting their passion for art and respect for national culture.

Keywords: Ishanov family, visual arts, pedagogy, art history, youth education, national culture.

Musiqa — insoniyatning eng qadimiy va jozibali san'ati bo'lib, xalqning ruhiyatini, his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini aks ettiruvchi beqiyos vositadir Ishanovlar oylasi san'at davomchilari O'zbek va qoraqalpoq tasviri san'ati tarixida o'z o'rni va iziga ega bo'lgan ijodkorlar orasida Ishanovlar oilasi alohida e'tirofga loyiq. Bu oila vakillari san'atga sadoqat, milliy madaniyatga hurmat va elga xizmat qilish avloddan-avlodga o'tkazib kelmoqda. Ularning ijodi orqali nafaqat badiiy go'zallik, balki tarix, milliylik, xalqona ruh ifodalangan. Aynan shu san'at davomchilaridandir Ishanov Ulug'bek Muzafarovich

o‘zining hayoti va ijodi bilan ushbu an’analarni munosib davom ettirib kelmoqda. Ulug‘bek Ishanov 1972-yil 8-mart kuni Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tug‘ilgan U san’atga mehr qo‘ygan, ijod bilan yashagan oilada tarbiya topgan. Uning otasi — Ishanov Muzafar Burxonovich — O‘zbekistonda tan olingen rassom, monumentalist, o‘z umrini tasviriy san’atga bag‘ishlagan yirik ijodkorlardan biridir. Onasi — Gulaim Saipova ham san’atshunoslik sohasi vakili bo‘lib, san’at olamiga chuqur mehr bog‘langan ziyoli ayol edi. 1971-yilda Gulaim Saipova bilan oila qurban va 1974-yildan boshlab Nukus shahrida ijodiy faoliyat olib borgan. Muzafar Ishanov san’at olamida nafaqat rassom, balki pedagog sifatida ham tanilgan. Ular o‘zaro ahil va namunali oila bo‘lib, 3 nafar farzandni – ikki o‘g‘il va bir qizni dunyoga keltirib, ularni mehr-muhabbat va mas’uliyat bilan tarbiyalagan. Har bir farzandini o‘qitib, ularga o‘rta va oliy ma’lumot berib, jamiyatda o‘z o‘rniga ega, foydali insonlar safidan joy olishlariga erishganlar. Ulug‘bek Ishanov ushbu oilaning to‘ng‘ich farzandi bo‘lib, mакtabda o‘qib yurgan davrlaridayoq o‘zining iste’dodi, bilimga chanqoqligi va san’atga bo‘lgan qiziqishi bilan ajralib turgan. U ilk maktab tahsilini 1979-yilda Nukus shahridagi Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 19-sonli umumta’lim maktabida 1- sinifda o‘qishni boshlagan. Shu yillardan boshlab rasmga bo‘lgan qiziqishi yanada kuchaygan. U o‘z iste’dodini muntazam rivojlantirgan va san’at yo‘lida qat’iyat bilan harakat qilgan. Bugungi kunda u nafaqat mohir rassom, balki ilmli, sabrli va tajribali pedagog sifatida ham tanilgan. U 1987–1991 yillarda Nukus shahridagi J. Shamuratov nomidagi Nukus san’at bilim yurtining tasviriy san’at bo‘limida tahsil oldi. 1992 yilda Toshkentdagi M. Uyg‘ur nomidagi Davlat madaniyat institutining san’at fakultetida arxitektura bezagi va restavratsiya yo‘nalishida o‘qishni davom ettirdi, ammo oilaviy sharoitlar sababli 1993 yilda akademik ta’til oldi. 2003 yilda O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tasarrufidagi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining san’atshunoslik fakultetiga o‘qishga kirib, tasviriy san’at tarixi va nazariyasi yo‘nalishini 2007 yilda muvaffaqiyatli tamomladi. Ulug‘bek Ishanov 2016 yildan buyon Nukus shahridagi 22-sonli bolalar musiqa va san’at maktabida tasviriy san’at yo‘nalishida yuqori toifali o‘qituvchi sifatida mehnat qilib kelmoqda. U o‘zining tajribasi, kasbga sadoqati va san’atga bo‘lgan muhabbati bilan ko‘plab yosh iste’dodlarni tarbiyalab, ularni respublika miqyosidagi turli tanlov va festivallarda g‘olib bo‘lishlariga sababchi bo‘lmoqda. Shogirdlarining ayrimlari bugungi kunda yurtimizdagi nufuzli oliy o‘quv yurtlarida tahsil olmoqdalar. 2022 yildan buyon u O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tasviriy san’atkorlari ijodiy uyushmasining a’zosi sifatida ijodiy faoliyat olib bormoqda. Ulug‘bek Ishanov 1997 yilda oila qurban. Uning rafiqasi – Erejepova Raushana, hozirda 12-sonli bolalar musiqa va san’at maktabining xoreografiya bo‘limida o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Ularning farzandlari ham ota-onalarining san’atga bo‘lgan muhabbati va fidoyiligi yo‘lidan borib, o‘z sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqdalar. Kattakon o‘g‘li Muzaferov Bexruz Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq Davlat san’at muzeyida ilmiy xodim bo‘lib ishlaydi. Kichik o‘g‘li Muzaferov Feruz – O‘zbekiston Davlat xoreografiya

akademiyasining talabasi bo‘lib, shu bilan birga Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik teatrda ikkinchi toifali balet artisti sifatida faoliyat yuritmoqda. xulosa qilib aytadigan bo’lsak Ulug‘bek Ishanovning hayoti va ijodiy faoliyati, uning oilasi, ota-onasi va farzandlari bilan bog‘liq boy meros bugungi kunda nafaqat Qoraqalpog‘iston, balki butun O‘zbekiston san’at va madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. U san’atni chin qalbdan sevgan, uni yoshlarga o‘rgatish va kelajak avlodga yetkazishdek sharaflı va mas‘uliyatli yo‘lni tanlagan fidoyi pedagog sifatida tanilgan. Uning o‘zi ham, ustozni bo‘lgan ota-onasi ham, san’at yo‘lini tanlagan farzandlari ham xalqimiz madaniy-ma’naviy hayotida alohida o‘ringa ega bo‘lgan insonlardir. Ulug‘bek Ishanov o‘z mehnati, bilim va iste’dodi bilan jamiyatimizda san’at va ma’rifatga bo‘lgan hurmat va e’tiborni oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Kamalova G. JAMIL CHARSHEMOVTÍN “POPURRI” SHÍGARMASÍNÍN ÓZGESHELIGI //Вестник музыки и искусства. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 52-57.
2. Kamalova, . G., & Dauletbaeva , G. (2024). DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDIÑ ÁHMIYETI. Вестник музыки и искусства, 1(4), 89–94. извлечено от <https://science.uzdknf.uz/index.php/science/article/view/231>
3. Dauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 880-884.
4. Kamalova G. JAMIL CHARSHEMOVTÍN “POPURRI” SHÍGARMASÍNÍN ÓZGESHELIGI //Вестник музыки и искусства. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 52-57.
5. Kamalova, . G., & Dauletbaeva , G. (2024). DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDIÑ ÁHMIYETI. Вестник музыки и искусства, 1(4), 89–94. извлечено от <https://science.uzdknf.uz/index.php/science/article/view/231>
6. Kamalova G. QÁLEMI ÓTKIR KOMPOZITOR (D. Djańabaeva dóretiwshilik jolı) //Вестник музыки и искусства. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 37-39.
7. Kamalova G.M. Kompozitor Dariko Djanabaeva Nókis, “Ilimpaz”. 2023.— 86- betDauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 880-884.